



**“O‘ztransgaz” AJ va uning tarkibiy tuzilmalarida  
korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida aloqa kanallari  
orqali kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish  
REGLAMENTI**

---

“O‘ztransgaz” AJning  
2026-yil “18 ” iyndagi 93-son  
Buyruqqa 11 ilova

**“O‘ztransgaz” AJ va uning tarkibiy tuzilmalarida korrupsiyaviy xatti-harakatlar  
to‘g‘risida aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlarni  
qabul qilish va ko‘rib chiqish  
REGLAMENTI**

<b>T/r</b>	<b>Bo‘lim nomi</b>	<b>Bet</b>
1	1-bob. Umumiy qoidalar	3
2	2-bob. Korrupsiyaga oid harakatlar haqida axborot berish uchun aloqa kanallari	5
3	3-bob. Aloqa kanallari orqali kelib tushayotgan taalluqli xabarlarni qabul qilish va ro‘yxatdan o‘tkazish	6
4	4-bob. Ishonch telefoni orqali kelib tushgan taalluqli xabarlarni qabul qilish va ro‘yxatdan o‘tkazish	7
5	5-bob. Telegram bot orqali olingan taalluqli xabarlarni qabul qilish va ro‘yxatdan o‘tkazish	7
6	6-bob. Shaxsiy (og‘zaki) tartibda olingan taalluqli xabarlarni qabul qilish va ro‘yxatdan o‘tkazish	8
7	7-bob. Jamiyatning rasmiy veb-sayti va elektron pochta orqali olingan taalluqli xabarlarni qabul qilish va ro‘yxatdan o‘tkazish	8
8	8-bob. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi orqali olingan taalluqli xabarlarni qabul qilish va ro‘yxatdan o‘tkazish	9
9	9-bob. Xodimning rahbariga kelib tushgan taalluqli xabarlarni qabul qilish va ro‘yxatdan o‘tkazish	9
10	10-bob. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar haqidagi xabarlarni ko‘rib chiqish	10
11	11-bob. Yakuniy qoidalar	11
12	1-ilova. “O‘ztransgaz” AJ va uning tarkibiy tuzilmalarida korrupsiyaga oid harakatlar haqidagi xabarlarni qabul qilish REESTRI	12

## **1- bob. Umumiy qoidalar**

1. O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati va uning tarkibiy tuzilmalarida (keyingi o‘rinlarda — Jamiyat) korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish reglamenti (keyingi o‘rinlarda — Reglament) Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash va tegishli ta’sir choralarni ko‘rishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Reglament Jamiyatda korrupsiyaviy xatti-harakatlar haqida aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlar bilan ishlashning asosiy tamoyillari, xabarlarni qabul qilish, ro‘yxatdan o‘tkazish va ko‘rib chiqish, shuningdek ular yuzasidan Jamiyat rahbariga hisobot taqdim etish tartibini belgilaydi.

3. ushbu Reglamentda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**Ishonch telefoni** – Jamiyatda korrupsiyaviy holatlarning oldini olish, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash hamda murojaatlarni tezkor ko‘rib chiqish maqsadida tashkil etilgan, telefon aloqa kanallari orqali kelib tushadigan murojaatlarni markazlashgan holda qabul qilish, ro‘yxatdan o‘tkazish, ko‘rib chiqish va monitoring qilish imkonini beruvchi tizim.

**murojaatchi** – Jamiyatdagi aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar, qonunbuzilish holatlari yoki boshqa huquqbuzarliklar to‘g‘risida axborot taqdim etuvchi har qanday jismoniy va (yoki) yuridik shaxs, shu jumladan Jamiyat xodimi.

**manfaatlar to‘qnashuvi** – Jamiyat xodimining shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda xodimning shaxsiy manfaatdorligi bilan Jamiyat manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat;

**korrupsiya** – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy foyda olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, shuningdek bunday foydani qonunga xilof ravishda taqdim etish;

**korrupsiyaviy harakatlar** – Jamiyat xodimi tomonidan pora beruvchining manfaatlarini ko‘zlab harakat yoki harakatsizligi uchun bevosita yoki bilvosita, shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora, ya’ni pul, qimmatbaho qog‘ozlar, boshqa mol-mulklar, mulkiy tusdagi xizmatlar, boshqa mulkiy huquqlarni olish, talab qilish, taklif etish, va’da berish va berish, shuningdek pora berish va (yoki) olishda vositachilik qilish, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlarni olish, shuningdek o‘z xizmat mavqeidan qonunga xilof ravishda foydalanish bilan bog‘liq huquqbuzarliklar;

**korrupsiyaga oid huquqbuzarlik** – korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

**korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi** – amaldagi qonunchilik va ichki hujjatlar asosida korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish va ularni bartaraf etish, Jamiyat xodimlarining yuqori darajadagi kasbiy hamda axloqiy faoliyatini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmui;

**korrupsiyaviy xavf-xatar** – Jamiyat xodimlari yoki uchinchi shaxslar tomonidan Jamiyat nomidan va (yoki) ularning manfaatlarini ko‘zlab korrupsiyaviy harakatlarni sodir etish xavfi;

**taalluqli xabar** – Jamiyatdagi korrupsiyaviy xatti-harakatlar va (yoki) manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi axborotdan iborat bo‘lgan xabar;

**xodimning shaxsiy manfaatdorligi** – Jamiyat xodimi tomonidan o‘z xizmat vazifalarini bajarishi chog‘ida o‘zi yoki uchinchi shaxslarning manfaatlari yo‘lida xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan pul mablag‘lari, moddiy yoki nomoddiy boyliklar, boshqa mol-mulk va imtiyozlar ko‘rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy hamda boshqa tijoriy yoki notijoriy manfaatlar);

**xodim** – Jamiyat, uning hududiy bo‘linmalari va tarkibiy tuzilmalari bilan mehnat munosabatlariga kirishgan shaxs;

**tarkibiy tuzilma** – Jamiyat tarkibiga kiruvchi va uning tasarrufidagi boshqa barcha korxonalar..

4. Jamiyat korrupsiyaviy xatti-harakatlar haqida axborot berishga mo‘ljallangan aloqa kanallari faoliyatini quyidagi tamoyillar asosida tashkil etadi:

**konfidensiallik va xavfsizlik** – aloqa kanallaridagi xabarlardan foydalanishga ruxsat berilgan Jamiyat, uning hududiy bo‘linmalari va tarkibiy tuzilmalarining barcha vakolatli shaxslari ushbu xabarlarni vakolatga ega bo‘lmagan shaxslarga berish (oshkor qilish) ga haqqi yo‘q. Agar murojaatchi o‘z xabarini yuborganligi haqida boshqa xodimlarga yoki uchinchi shaxslarga o‘z xohishiga ko‘ra, jumladan, ehtiyotsizligi natijasida oshkor qilgan bo‘lsa, Jamiyat uning oshkor bo‘lishiga javobgar bo‘lmaydi;

**qonuniylik** – Jamiyat aloqa kanallariga kelib tushadigan xabarlarni qabul qilish, ro‘yxatga olish, qayta ishlash va ko‘rib chiqish qat‘iy ravishda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari va ushbu Reglamentga muvofiq amalga oshiriladi;

**murojaatchining ta‘qib qilinmasligi** – aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy harakatlar haqida o‘z xohishiga ko‘ra xabar bergan jismoniy va yuridik shaxs, xususan Jamiyat xodimi xabarning mazmunidan qat‘i nazar biron-bir javobgarlikka tortilmaydi;

**murojaatchi bilan majburiy tartibdagi qayta aloqa** – anonim bo‘lmagan xabarlarni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha murojaatchiga belgilangan tartibda axborot berilishi lozim;

**ta’sir choralari qo‘llashning majburiyigi** – korrupsiya fakti tasdiqlangan taqdirda, Jamiyat va tarkibiy tuzilmalari aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq harakat qiladi;

**korrupsiyaga oid maslahat** – murojaatchi, korrupsiyaviy qoidabuzarlikga yoki korrupsiyani anglatishi mumkin bo‘lgan vaziyatga duch kelganda nima qilish kerakligi to‘g‘risida Komplayens-nazorat bo‘limi tomonidan maslahat olishi mumkin.

**xabar beruvchini himoya qilish** – korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida vijdonan xabar bergan shaxsga nisbatan ta’qib qilish, bosim o‘tkazish, kamsitish yoki boshqa salbiy ta’sir choralari qo‘llashga yo‘l qo‘yilmaydi.

## **2- bob. Korrupsiyaga oid harakatlar haqida axborot berish uchun aloqa kanallari**

5. Xabarlar quyidagi aloqa kanallari orqali yuborilishi mumkin

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi (<https://pm.gov.uz/>) orqali;

Jamiyatning rasmiy veb-sayti (<https://www.utg.uz/>) yoki elektron pochta manzili orqali;

Jamiyatning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifa va kanallari orqali, jumladan:

1. **Komplayens-nazorat bo‘limi Facebook ijtimoiy tarmog‘idagi rasmiy sahifa** – <https://www.facebook.com/Uztransgazanticorruption>;

2. **Komplayens-nazorat bo‘limi Telegram messenjeridagi bot** – [https://t.me/UztransgazAnticorruptions\\_Bot](https://t.me/UztransgazAnticorruptions_Bot) (Telegram);

3. **Komplayens-nazorat bo‘limi ishonch telefoni** – 1852

4. **Jamiyatning rasmiy veb-sayti** – [www.utg.uz](http://www.utg.uz);

5. **Komplayens-nazorat bo‘limi elektron pochta manzili** – [compliance@utg.uz](mailto:compliance@utg.uz) (elektron pochta) orqali.

Jamiyat va uning tarkibiy tuzilmalaridagi Komplayens-nazorat bo‘limi xodimlariga og‘zaki (shaxsan) murojaat qilish orqali;

huquqni muhofaza qiluvchi organlar orqali;

mazkur Reglamentda nazarda tutilmagan boshqa aloqa kanallari orqali.

Murojaatchilar o‘z hududidan kelib chiqib Jamiyat va uning tegishli tarkibiy tuzilmasidagi Komplayens-nazorat bo‘limi xodimlariga murojaat qilishlari mumkin..

6. Mazkur Reglamentda nazarda tutilgan aloqa kanallaridan tashqari kelib tushgan barcha xabarlar belgilangan tartibda qabul qilinishi, ro‘yxatdan o‘tkazilishi va ko‘rib chiqilishi lozim.

### **3- bob. Aloqa kanallari orqali kelib tushayotgan taalluqli xabarlarni qabul qilish va ro‘yxatdan o‘tkazish**

7. Taalluqli xabar kelib tushganda aloqa kanallari orqali xabarlarni qabul qiluvchi Jamiyatning vakolatli xodimi:

Murojaatchiga Jamiyat tomonidan kelib tushgan xabar yuzasidan qayta aloqa o‘rnatish uchun murojaatchi bilan bog‘lana olmaslik ehtimoli mavjudligi haqida ma‘lum qilishi;

qo‘shimcha zarur ma‘lumotlarni olish imkoniyati mavjud bo‘lmagan taqdirda xabarni to‘liq va har tomonlama o‘rganish imkoniyati cheklanishi mumkinligini bildirishi;

murojaatchi o‘z murojaatidan voz kechmagan taqdirda, mazkur Reglamentda nazarda tutilgan tartibda xabarni qabul qilishi shart.

8. Taalluqli xabarlarni qabul qiluvchi xodim murojaatchidan imkon qadar quyidagi ma‘lumotlarni aniqlashtirishi lozim:

Jamiyat va uning tarkibiy tuzilmasi haqidagi ma‘lumotlar;

korrupsiyaviy yoki boshqa huquqbuzarlik sodir etilgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilishi mumkin bo‘lgan davr hamda uning takrorlanish holati (bir martalik yoki muntazam);

korrupsiyaviy yoki boshqa huquqbuzarlikning qisqacha tavsifi (jumladan, muhim faktlar, holatlar, ehtimoliy sabablar va boshqa ahamiyatga molik ma‘lumotlar);

gumon qilinayotgan va (yoki) daxldor bo‘lgan Jamiyat xodimining lavozimi hamda F.I.Sh.;

korrupsiyaviy yoki boshqa huquqbuzarlik haqida ma‘lumotga ega bo‘lgan yoki uni tasdiqlashi mumkin bo‘lgan boshqa shaxslar haqidagi ma‘lumotlar;

murojaatchining F.I.Sh. va aloqa ma‘lumotlari (qayta aloqa uchun, agar murojaatchi buni istasa).

9. Komplayens-nazorat bo‘limi Jamiyatning aloqa kanallari orqali kelib tushgan taalluqli xabarlarni ko‘rib chiqishga mas‘ul bo‘linma hisoblanadi.

Jamiyatning aloqa kanallari orqali taalluqli xabar kelib tushganda, bunday xabarni qabul qilgan xodim uni bir soat ichida Komplayens-nazorat bo‘limiga ko‘rib chiqish uchun taqdim etishi lozim.

Taalluqli xabar haqidagi ma‘lumotlar Komplayens-nazorat bo‘limi xodimi tomonidan belgilangan shaklda Jamiyat tizimidagi korrupsiyaga oid xatti-harakatlar haqidagi xabarlarni qabul qilish reyestrda (keyingi o‘rinlarda — Reyestr) 1-ilovaga muvofiq bir soat ichida ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Komplayens-nazorat bo‘limi mas‘ul xodimi kelib tushadigan xabarlarni dushanbadan jumagacha soat 09:00 dan 18:00 ga qadar tahlil qiladi. Agar xabar ish vaqtidan tashqari paytda kelib tushsa, bu xabar keyingi ish kunida ko‘rib chiqiladi.

#### **4- bob. Ishonch telefoni orqali kelib tushgan taalluqli xabarlarni qabul qilish va ro‘yxatdan o‘tkazish**

10. Jamiyatning ishonch telefoni — 1852 orqali kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish tartibi Jamiyatning jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibini belgilovchi ichki hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Agar ishonch telefoni orqali murojaat qilgan shaxs o‘z xabarini tasdiqlovchi qo‘shimcha materiallarga, jumladan foto materiallar, hujjatlar, audio yoki video yozuvlarga ega bo‘lsa, murojaatni qabul qiluvchi xodim ularni taqdim etish uchun mavjud aloqa kanallari (Telegram bot, elektron pochta va boshqa aloqa vositalari) haqida ma’lumot beradi hamda taqdim etilgan axborotning konfidensialligi ta’minlanishini bildiradi.

Agar xabar taalluqli deb topilsa, uni qabul qilgan xodim belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazishi hamda tezkor tahlil qilish lozim.

Komplayens-nazorat bo‘limi xodimi taalluqli xabar kelib tushgan vaqtdan boshlab bir soat ichida uni Reyestrda ro‘yxatdan o‘tkazishi lozim.

Murojaatlar haftaning dushanba–juma kunlari soat 09:00 dan 18:00 ga qadar qabul qilinadi. Ish vaqtidan tashqari vaqtda ovozi xabar qoldirish mumkin.

#### **5- bob. Telegram bot orqali olingan taalluqli xabarlarni qabul qilish va ro‘yxatdan o‘tkazish**

11. Xabar Jamiyatning qaysi tarkibiy tuzilmasiga tegishli bo‘lishidan qat’i nazar, @UztransgazAnticorruptions\_Bot Telegram boti taalluqli xabarlar haqida axborot berish uchun umumiy aloqa kanali hisoblanadi.

Jamiyatning Telegram boti orqali kelib tushadigan xabarlarni qabul qilish uchun Komplayens-nazorat bo‘limining mas’ul xodimi tayinlanadi. Mas’ul xodim kelib tushadigan xabarlarni dushanbadan jumagacha soat 09:00 dan 18:00 ga qadar qabul qiladi. Agar xabar ish vaqtidan tashqari paytda kelib tushsa, ushbu xabar navbatdagi ish kunida mas’ul xodim tomonidan ko‘rib chiqish va ro‘yxatdan o‘tkazish uchun saqlanadi.

Agar murojaatchi o‘z xabarlarini tasdiqlovchi hujjatlar, jumladan audio va video yozuvlar, fotosuratlar hamda boshqa materiallarga ega bo‘lsa, ularni Telegram bot orqali yuborilgan xabarga ilova qilishi mumkin.

@UztransgazAnticorruptions\_Bot Telegram botiga taalluqli xabar kelib tushganda, Komplayens-nazorat bo‘limining mas’ul xodimi murojaatchi bilan elektron yozishma yoki

telefon orqali bir soat ichida bog‘lanib, zarur ma‘lumotlarni aniqlashtiradi hamda xabarni Reyestrda ro‘yxatdan o‘tkazadi.

## **6- bob. Shaxsiy (og‘zaki) tartibda olingan taalluqli xabarlarni qabul qilish va ro‘yxatdan o‘tkazish**

12. Murojaatchining taalluqli xabari Jamiyat va uning tarkibiy tuzilmalari xodimlari tomonidan shaxsan (og‘zaki) qabul qilinishi mumkin.

Taalluqli xabar kelib tushganda xabarni qabul qiluvchi xodim uni qabul qilishi hamda bir soat ichida xizmat xatini rasmiylashtirishi lozim. Xizmat xatida quyidagi ma‘lumotlar ko‘rsatiladi:

murojaatchining F.I.Sh.;

qayta aloqa uchun elektron pochta manzili yoki telefon raqami;

xabarning qisqacha mazmuni;

zaruratga ko‘ra ilova qilinadigan qo‘shimcha materiallar.

Xizmat xati Jamiyat va uning tarkibiy tuzilmalarining Komplayens-nazorat bo‘limiga kiritilishi lozim. Jamiyat va uning tarkibiy tuzilmalarining Komplayens-nazorat bo‘limi murojaatchi bilan qayta aloqa o‘rnatish uchun taqdim etilgan aloqa ma‘lumotlari asosida zarur choralarni ko‘radi.

Jamiyat va uning tarkibiy tuzilmalarining Komplayens-nazorat bo‘limi mas‘ul xodimi xabarni qabul qilganidan keyin bir soat ichida uni 1-ilovaga muvofiq Reyestrda ro‘yxatdan o‘tkazishi lozim.

## **7- bob. Jamiyatning rasmiy veb-sayti va elektron pochta orqali olingan taalluqli xabarlarni qabul qilish va ro‘yxatdan o‘tkazish**

13. Jamiyatning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan aloqa shakli hamda [compliance@utg.uz](mailto:compliance@utg.uz) elektron pochta manzili orqali kelib tushadigan taalluqli xabarlarni qabul qilish Jamiyat va uning tarkibiy tuzilmalarining Komplayens-nazorat bo‘limi tomonidan amalga oshiriladi.

Jamiyatning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan aloqa shakli yoki [compliance@utg.uz](mailto:compliance@utg.uz) elektron pochta manzili orqali taalluqli xabar kelib tushganda, Jamiyat va uning tarkibiy tuzilmalarining Komplayens-nazorat bo‘limi mas‘ul xodimi bir soat ichida uni ko‘rib chiqish uchun qabul qilishi hamda 1-ilovaga muvofiq shaklda ro‘yxatdan o‘tkazishi lozim.

Jamiyat va uning tarkibiy tuzilmalarining Komplayens-nazorat bo‘limi mas‘ul xodimi taalluqli xabar kelib tushganidan keyin bir soat ichida uni 1-ilovaga muvofiq shaklda ro‘yxatdan o‘tkazishi lozim.

## **8- bob. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi orqali olingan taalluqli xabarlarni qabul qilish va ro‘yxatdan o‘tkazish**

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi orqali taalluqli xabar kelib tushganda, Jamiyat va uning tarkibiy tuzilmalarining murojaatlar bilan ishlashga mas’ul xodimi olingan ma’lumotlarni tegishli tizimda ro‘yxatdan o‘tkazadi hamda bir soat ichida Jamiyat va uning tarkibiy tuzilmalarining Komplayens-nazorat bo‘limiga kiritadi.

Jamiyat va uning tarkibiy tuzilmalarining Komplayens-nazorat bo‘limi mas’ul xodimi mazkur xabarni olganidan so‘ng uni bir soat ichida 1-ilovaga muvofiq shaklda ro‘yxatdan o‘tkazishi lozim.

## **9- bob. Xodimning rahbariga kelib tushgan taalluqli xabarlarni qabul qilish va ro‘yxatdan o‘tkazish**

15. Jamiyat va uning tarkibiy tuzilmalarining xodimlari boshqa xodimlarning o‘zlariga ma’lum bo‘lgan korrupsiyaviy xatti-harakatlari haqida o‘zining bevosita rahbariga yoki Jamiyat va uning tarkibiy tuzilmalarining Komplayens-nazorat bo‘limiga xabar berishlari mumkin.

O‘ziga bo‘ysunuvchi xodimdan taalluqli xabarni olgan Jamiyat va uning tarkibiy tuzilmasi rahbari xizmat xatini rasmiylashtirishi hamda unda quyidagi ma’lumotlarni ko‘rsatishi shart:

xodimning F.I.Sh.;

Jamiyat va uning tarkibiy tuzilmasi nomi;

qayta aloqa uchun elektron pochta manzili yoki telefon raqami;

xabarning qisqacha mazmuni;

zaruratga ko‘ra ilova qilinadigan qo‘shimcha materiallar.

Taalluqli xabarni qabul qilgan Jamiyat va uning tarkibiy tuzilmasi rahbari bir soat ichida olingan ma’lumotlarni Jamiyat va uning tarkibiy tuzilmalarining Komplayens-nazorat bo‘limiga kiritishi lozim.

Agar xabarda zarur ma’lumotlar to‘liq bo‘lmasa, Jamiyat va uning tarkibiy tuzilmalarining Komplayens-nazorat bo‘limi mas’ul xodimi bir soat ichida xabarni bergan xodim bilan bog‘lanish choralari ko‘rishi kerak.

Jamiyat va uning tarkibiy tuzilmalarining Komplayens-nazorat bo‘limi mas’ul xodimi xabarni olganidan keyin bir soat ichida uni 1-ilovaga muvofiq shaklda ro‘yxatdan o‘tkazishi lozim.

## **10- bob. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar haqidagi xabarlarni ko‘rib chiqish**

16. Jamiyat va uning tarkibiy tuzilmalarining Komplayens-nazorat bo‘limiga kelib tushgan barcha taalluqli xabarlar mazkur bo‘lim xodimlari tomonidan ko‘rib chiqilishi lozim.

Taalluqli xabar kelib tushganda, Jamiyat va uning tarkibiy tuzilmalarining Komplayens-nazorat bo‘limi xodimi dastlabki tekshiruv o‘tkazadi hamda xabarning taalluqliligini, ya‘ni unda ko‘rsatilgan ma‘lumotlarning Jamiyat tizimiga taalluqli korrupsiyaviy huquqbuzarlik va (yoki) manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liqligini tahlil qiladi.

Dastlabki tekshiruv taalluqli xabar Jamiyat va uning tarkibiy tuzilmalarining Komplayens-nazorat bo‘limiga kelib tushgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida amalga oshiriladi.

Mazkur Reglamentning ushbu bobida nazarda tutilgan dastlabki tekshiruv natijalaridan qat’i nazar, tegishli ma‘lumotlar 1-ilovaga muvofiq shaklda ro‘yxatga kiritiladi.

Agar Jamiyat va uning tarkibiy tuzilmalarining Komplayens-nazorat bo‘limi xodimi xabarni taalluqli emas degan xulosaga kelsa, ushbu xabar bir ish kuni ichida tegishliligi bo‘yicha mas‘ul bo‘linmaga bildirgi asosida yuboriladi.

Agar xabarda korrupsiyaviy xatti-harakatlar va (yoki) manfaatlar to‘qnashuvi haqida ma‘lumotlar hamda xizmat tekshiruvini o‘tkazish uchun yetarli asoslar mavjud bo‘lsa, Jamiyat va uning tarkibiy tuzilmalarining Komplayens-nazorat bo‘limi xodimi ichki normativ hujjatlarda belgilangan tartibda xizmat tekshiruvini o‘tkazish tashabbusi bilan chiqadi.

Taalluqli xabarlarni mazmunan ko‘rib chiqish ular Jamiyatga kelib tushgan kundan e‘tiboran bir oy muddatda amalga oshiriladi. Tekshirish o‘tkazish, qo‘shimcha materiallar va hujjatlarni so‘rab olish yoxud boshqa zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etilgan hollarda, mazkur muddat Jamiyat rahbarining roziligi bilan istisno tariqasida bir martadan ko‘p bo‘lmagan muddatga, ko‘pi bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin. Bunda muddat uzaytirilganligi haqida murojaat etuvchiga (anonim murojaatlar bundan mustasno) belgilangan tartibda xabar beriladi.

Murojaat yuzasidan tayyorlangan javob xati Jamiyat va uning tarkibiy tuzilmalarining Komplayens-nazorat bo‘limi tomonidan ishlab chiqiladi hamda belgilangan tartibda Jamiyat rahbari yoki vakolatli mansabdor shaxs tomonidan imzolanadi.

Taalluqli xabarlarni ko‘rib chiqish yakunlariga ko‘ra o‘rganish natijalari hamda qo‘llanilgan ta’sir choralari ko‘rsatilgan javob xati tayyorlanadi va murojaatchiga yozma yoki elektron shaklda yuboriladi.

Ijtimoiy tarmoqdagi kanal va saxifalar, telegram bot orqali kelib tushgan taalluqli xabarlar javob murojaatchiga elektron shaklda ijtimoiy tarmoqdagi kanal va saxifalar, telegram bot yoki murojaatchi tomonidan ko‘rsatilgan boshqa aloqa kanallari orqali yuboriladi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida vijdonan xabar bergan shaxsga nisbatan ta‘qib qilish, bosim o‘tkazish, kamsitish yoki boshqa salbiy ta‘sir choralari qo‘llashga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ko‘rib chiqish natijasida jinoyat, ma‘muriy huquqbuzarlik yoki boshqa qonunbuzarlik alomatlari aniqlangan hollarda materiallar belgilangan tartibda vakolatli davlat organlariga yuborilishi mumkin.

Xabarni ko‘rib chiqish jarayoniga mazkur holatga bevosita aloqador bo‘lgan yoki manfaatlar to‘qnashuvi mavjud bo‘lgan xodimlarni jalb etishga yo‘l qo‘yilmaydi.

### **11-bob. Yakuniy qoidalar**

17. Komplayens-nazorat bo‘limi tomonidan har chorak yakuni bo‘yicha korrupsiyaga oid masalalar yuzasidan kelib tushgan taalluqli xabarlar haqida umumlashtirilgan hisobot shakllantiriladi.

Murojaatchilar va xodimlardan taalluqli xabarlarni qabul qiluvchi Jamiyat va uning tarkibiy tuzilmalarining Komplayens-nazorat xodimlari mazkur Reglament talablariga rioya etilishi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

Mazkur Reglament talablarini buzganlik uchun javobgarlik choralari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda Jamiyatning ichki normativ hujjatlarida belgilangan tartib va asoslarda qo‘llaniladi.

Olingan xabarlar bo‘yicha barcha taalluqli materiallar, hujjatlar va ma‘lumotlar (shu jumladan, qabul qilingan qarorlar va murojaatchilarga yuborilgan javoblar) Murojaatlar bilan ishlash tuzilmasida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan muddatga saqlanishi kerak.

18. Mazkur Reglament, murojaatlar va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi o‘zgarganda qayta ko‘rib chiqilishi lozim.



**“O‘ztransgaz” AJ va uning tarkibiy tuzilmalarida  
korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida aloqa kanallari  
orqali kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish  
REGLAMENTI**

“O‘ztransgaz” AJ va uning tarkibiy tuzilmalarida  
korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida aloqa  
kanallari orqali kelib tushgan xabarlarni qabul  
qilish va ko‘rib chiqish

REGLAMENTI

1- ilova

**“O‘ztransgaz” AJ va uning tarkibiy tuzilmalarida korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida aloqa kanallari orqali kelib  
tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish  
REESTRI**

T/r	Xabar kelib tushgan sana	Hudud	Xabarning toifasi (korrupsiyaviy xatti-harakat, manfaatlar to‘qnashuvi)	Murojaatlar bilan ishlash tizimida ro‘yxatga olingan sana va raqami	Xabar yuborilgan aloqa kanali	Murojaatchi ma‘lumotlari (jismaniy yoki yuridik shaxs, qayta aloqa ma‘lumotlari)	Xabarning qisqacha mazmuni	Xabar taalluqli bo‘lgan tuzilma	Ko‘rib chiqish natijalari qanoatlantirildi/ tushuntirish berildi/ ko‘rmasdan qoldirildi	Murojaatchiga javob yuborilgan sana va xat raqami	Ijrochi	Xabarni ko‘rib chiqqan tuzilma rahbari	Izoh
1.													
2.													
...													